

BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARI VA UNGA
QO'YILADIGAN TALABLAR

Gulomova Gulnozaxon Shavkatovna

Shahrixon tumani MMTBga qarashli 7- umumiy o'rta ta'lismaktabining boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqola boshlang'ich sinf darsliklari va ularga qo'yiladigan talablarni ko'rib chiqadi. Boshlang'ich ta'lism o'quvchilarining bilim olish jarayonida muhim bosqich bo'lib, darsliklar bu jarayonda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Maqolada darsliklarning mavzularni izchil taqdim etishi, oson tushunilishi, vizual materiallar bilan boyitilishi, amaliy mashqlar va interaktiv elementlar mavjudligi kabi muhim jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'z-o'zini baholash imkoniyatlari, qiziqarli va motivatsion materiallar, tayanch ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qituvchilar uchun qo'llanmalar va differensiyalashgan yondashuv kabi talablar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lism, darsliklar, amaliy mashqlar, o'z-o'zini baholash, motivatsiya, qo'llanmalar, o'quvchilar uchun qulayliklar, qo'llanmalar, vizual materiallar.

Аннотация: в данной статье рассматриваются учебники для начальной школы и требования к ним. Начальное образование является важным этапом в процессе обучения учащихся, а учебники служат основным инструментом в этом процессе. В статье анализируются такие важные аспекты, как последовательное изложение тем в учебниках, простота понимания, обогащение наглядными материалами, практическими упражнениями, наличие интерактивных элементов. Также обсуждаются такие требования, как возможности самооценки, увлекательные и мотивационные материалы, развитие базовых навыков, руководства для учителей и дифференцированный подход.

Ключевые слова: начальное образование, учебники, практические занятия, самооценка, мотивация, пособия, средства для учащихся, пособия, наглядные материалы.

Abstract: this article examines primary school textbooks and their requirements. Primary education is an important stage in the learning process of students, and textbooks serve as the main tool in this process. The article analyzes such important aspects as textbooks' consistent presentation of topics, ease of understanding, enrichment with visual materials, practical exercises, and the presence of interactive elements. Also discussed are requirements such as self-assessment opportunities, engaging and motivational materials, foundational skills development, teacher guides, and a differentiated approach.

Key words: elementary education, textbooks, practical exercises, self-assessment, motivation, manuals, facilities for students, manuals, visual materials.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida" gi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari" asosida ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsiplari tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi. Natijada 1999-yilda umumiy o'rta ta'limning davlat standartlari tasdiqlandi. Davlat ta'lim statdarlari umumiy orta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliv ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qoyiladigan talablarni belgilab berdi. Davlat ta'lim standarti amaliyotga joriy qilinib, bir qator tajribalar to'plandi. 2005-yilda to'plangan tajribalar asosida Davlat ta'lim statdari takomillashtirildi. Darslik muayyan o'quv fani mazmunini o'quv dasturida ko'rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan kitob sanaladi. Boshlang'ich ta'lim — o'quvchilarning bilim olish jarayonining muhim bosqichi bo'lib, bu davrda bolalar asosiy fanlar bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni egallaydilar.

Boshlang'ich sinf darsliklari ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida o'quvchilarga bilim berish, ularni o'qish va yozishga o'rgatish, shuningdek, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Darsliklarni sifatli bo'lishi o'quvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, boshlang'ich sinf darsliklariga qo'yiladigan talablar juda muhimdir. Darslikning xarakterli xususiyati, - bu uning mazmunining o'quv dasturi mazmuniga mos kelishidir. Darslikda material bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu muayyan bob, uning tarkibida bo'lgan bandlar asosida ochib beriladi. Ushbu talablar quyidagilardan iboratdir: O'quv darsligida ilmiy bilimlar tizimi va hajmi o'quv dasturi talablariga tegishli hajmda sinf talabalarining yosh va psixologik xususiyatlariaga mos bo'lishi kerak. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari hamda g'oyaviy yo'nalishi tizimli va izchil bo'lishi, keltirilgan ma'lumot va dalillarning asosli. ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil, aniq ta'rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda darsliklar muhim vositadir. Ular o'rganishga tizimli yondashuvni ta'minlaydi va o'quvchilar uchun o'z bilimlarini takrorlash va mustahkamlash uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Biroq o'quvchilar darsliklardan to'liq foydalanishlari uchun ulardagi ma'lumotlarni o'qish, tushunish va qo'llash uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Maktab darsliklari o'quvchilar tomonidan bir qator fanlarni o'rganish va o'qish uchun ishlataladigan kitoblar hisoblanadi. Ular matematika, tarix, fizika, kimyo, biologiya, o'zbek tili, adabiyot, ingliz tili va boshqa ko'plab fanlarni o'z ichiga oladi. Maktab darsliklari, mualliflar tomonidan yozilgan va o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga ta'lim berishda foydalilaniladigan tarkibiy darsliklardir. Ular murakkab tizimlar yaratish uchun xizmat qiladi va o'quvchilarga zarur bilim va ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Darsliklar o'quvchilarga fanlarni o'rganish, savollar yechish va jadal rivojlanishga yordam beradilar. Maktab darsliklarini yaratishda ular o'quvchilarga ta'lim berishda samarali bo'lishi va ta'lim tizimi talablariga javob berishi uchun ma'lum qoidalarga amal qilish zarur. O'zbekistondagi maktab darsliklari ilmiy muassasalar, oliv o'quv yurtlari va boshqa davlatlarda muassasalar tomonidan yoziladi va tayyorlanadi. Maktab darsliklari, o'quv jarayoni davomida o'quvchilarga yordam berishi, ma'lumotlarni kengaytirishi va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

O'zbekistonda maktab darsliklariga qo'yiladigan talablardan ba'zilari quyidagilardir:

- O'quv dasturlariga muvofiq bo'lishi: darsliklar milliy o'quv dasturlariga mos ravishda ishlab chiqilishi va kerakli mavzular va o'quv natijalarini qamrab olishi kerak.
- Ishonchli bo'lisligi: darsliklar joriy tadqiqotlar va o'qitishning ilg'or tajribalariga asoslangan aniq va ishonchli ma'lumot manbalari bo'lishi kerak.
- Madaniyat jihatdan moslik: darsliklar O'zbekistonning madaniy xilma- xilligini aks ettirishi hamda uning xalqining qadriyatlari va e'tiqodlarini hurmat qilishi kerak.
- Inklyuzivlik: darsliklar jinsi, millati va qobiliyatidan qat'i nazar, barcha o'quvchilarni qamrab olishi kerak.
- Mavjudligi va arzonligi: darsliklar ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'i nazar, barcha o'quvchilar uchun oson va arzon bo'lishi kerak.

Ko'rgazmali qurollar: darsliklarda o'quvchilarning mazmunni tushunishga yordam beradigan sxemalar, illyustratsiyalar va fotosuratlar kabi mos va tegishli ko'rgazmali qurollar bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga sinf darsliklari qanday yordam berishini tushunmoqchi bo'lsak, quyidagi izohlarni keltiramiz:

- Tashkiliy ta'lim: boshlang'ich sinf darsliklari mazmunni o'quvchilar tushunishi oson bo'lgan tarzda tuzilgan. Materiallar mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etiladi, o'quvchilar allaqachon o'rgangan narsalarga asoslanadi va asta- sekin yangi tushunchalarni kiritadi.
- Amaliy mashg'ulotlar: darsliklarda o'quvchilarning o'quv materialini tushunishlarini tekshirish imkonini beruvchi bir qator mashqlar va amaliy savollar berilgan. Bu mashqlar ham o'quvchilarda muammoni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Uy vazifasiga yordam: boshlang'ich sinf darsliklarda ko'pincha o'quvchilarga uy vazifalarini bajarishda yordam beradigan misollar va tushuntirishlar mayjud. Bu, ayniqsa, bolalariga uy vazifasini bajarishda yordam beradigan ota-onalar uchun foydalidir. Ma'lumotlar: darsliklar, shuningdek, o'quvchilar tushuncha yoki g'oyani ko'rib chiqishlari kerak bo'lganda murojaat qilishlari uchun ma'lumot manbasi bo'lib xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, xotirasini yangilashi yoki dars davomida to'liq tushunmagan tushunchasini aniqlashtirishi kerak bo'lgan. o'quvchilar uchun foydalidir. Bundan tashqari, boshlang'ich maktab o'quvchilarida darslik ko'nikmalarini shakllantirishning samarali omillarini quyida keltiramiz:

- Darslik tuzilishini tushunish: darslik ko'nikmalarini shakllantirishning birinchi bosqichi o'quvchilarga darslik tuzilishini tushunishga yordam berishdir. O'quvchilar darslikda harakat qilish uchun mundarija, belgilar, lug'at va boshqa tashkiliy xususiyatlardan qanday foydalanishi bilishlari kerak. Shuningdek, ular asosiy g'oyalar va yordamchi tafsilotlar haqida ma'lumot beruvchi sarlavhalar va kichik tushuntirishlarni tushunishlari kerak.

Boshlang'ich sinf darsliklari ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan asboblardir. Ularning sifatli tayyorlanishi va yuqoridaq talablar asosida ishlab chiqilishi

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. To'g'ri tayyorlangan darsliklar bolalarning ta'lif jarayonida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi va ularning keljakdagi rivojlanishida muhim rol o'yndaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR, DARSLIK TUSHUNCHASI .Z. Choriyeva.

2. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA DARSLIKLAR HLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNIN ASOSIY OMILLARI Abdumannatov E.Alibekova N.M.2023

